yosatini takomillashtirish zarur bo‘ladi. Davlatning ma’naviy salohiyatni asrash va yuksaltirishga yo‘naltirilgan siyosatining asosiy vazifalari unga xavf solayotgan omillarga mutanosib bo‘lmog‘i hamda jamiyatdagi xulq-atvor modellarini ijtimoiy normalar bilan uyg‘unlashtirish, fuqarolar madaniy saviyasini oshirish, milliy g‘oyani rivojlantirish, ijodkor va ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish, ilmiy ishlarni tashkil etish va monitoring qilishni takomillashtirish, adabiyot va san’at durdonalariga ijtimoiy ehtiyojni kuchaytirish, ma’naviy merosni asrash imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyat ma’naviy xavfsizligini yanada mustahkamlash bilan bog‘lanmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-ж., Тошкент, “Ўзбекистон”, 2020. 35-, 11-бетлар.

(2). Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2021, 296-бет.

(3). Jabborova S.S. The Role of Spirituality in the Education of a Perfect Generation. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. Volume: 04. Issue: 05. May, 2023, p. 296–299 (Journal indexed by Academic Resource Index (ResearchBib).

(4). Jabborova S.S. Jamiyat ma’naviy salohiyatiga xavf solayotgan omillar va ularning tahlili. Falsafa va hayot. Toshkent, 2023, №SI-2, 105–112-betlar (09.00.00; №25).

(5). Jabborova S.S. Jamiyat ma’naviy salohiyatiga xavf solayotgan omillar va ularning tahlili. Falsafa va hayot. Toshkent, 2023, №SI-2 105–112-betlar (09.00.00; №25).

(6). Jabborova S.S. Ma’naviy salohiyatning ijtimoiy taraqqiyot manbayi sifatida xususiyatlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, 3 (4), 2024, 240–246-betlar.

(7). Jabbborova S.S. Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ma’naviy salohiyatdan foydalanish istiqbollari. https://journal.fdu.uz. 2024, 2-son, 213–218-betlar.

(8). Jabborova S.S. Jamiyatda ma’naviy salohiyatni rivojlantirish – yurt kelajagini belgilab beruvchi muhim omil. “Tafakkur ziyosi”, Jizzax, 2023, 2-son,186–190-betlar (09.00.00; №22).

(9). Jabborova S.S. O‘zbekistonda jamiyatning ma’naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashdagi roli. FarDU “Ilmiy xabarlari”, Fargona, 2023, 4-son, 64–68-betlar (09.00.00; №31).

(10). Jabborova S.S. Piritual competence – a source of social development. 2nd International Ege Congress on Social Sciences & Humanities. Ege University, Izmir, Turkiye, 2023, p. 557–560.

Boymatov Rustam (Qarshi davlat universiteti “Falsafa va sotsiologiya” kafedrasi o‘qituvchisi)

SHAXS SIYOSIY MADANIYATI VA SIYOSIY YETUKLIK

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shaxs siyosiy madaniyati, uning asosiy elementlari, shakllanish omillari hamla ijtimoiy-siyosiy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, shaxs siyosiy madaniyati siyosiy yetuklikning muhim omili ekanligiga e’tibor qaratilgan. O‘z navbatida, shaxsning siyosiy yetukligi demokratik jamiyat talabi ekanligi to‘g‘risida mulohaza yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *demokratik jamiyat, siyosiy madaniyat, siyosiy qadriyatlar, siyosiy faoliyat, siyosiy yetuklik, mustaqil fikrlash, ijtimoiy adolat, mas’uliyat.*

ПОЛИТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗРЕЛОСТЬ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье анализируется политическая культура личности, ее основные элементы, факторы ее формирования, а также ее общественно-политическое значение. Также подчеркивается, что политическая культура человека является важным фактором политической зрелости. С другой стороны, считается, что политическая зрелость человека является требованием демократического общества.*

Ключевые слова: *демократическое общество, политическая культура, политические ценности, политическая деятельность, политическая зрелость, независимое мышление, социальная справедливость, ответственность.*

PERSONAL POLITICAL CULTURE AND POLITICAL MATURITY

Annotation. *This article analyzes the political culture of the individual, its main elements, factors of its formation, as well as its socio-political significance. It is also emphasized that the political culture of a person is an important factor of political maturity. On the other hand, it is considered that the political maturity of a person is a requirement of a democratic society.*

Key words: *democratic society, political culture, political values, political activity, political maturity, independent thinking, social justice, responsibility.*

Kirish. Siyosiy madaniyat umumiy madaniyatning ajralmas qismidir. U madaniyatni g‘oyaviy mazmun bilan boyitadi. Siyosatda madaniyat orqali norma va qadriyatlar izchilligi ta’minlanadi. “Siyosat” va

“madaniyat” tushunchalari mazmunining sintezi ham shundan iborat. Siyosiy madaniyat siyosat va madaniyatga xos bo‘lgan umumiy xuusiyatlarni o‘z ichiga olish bilan bir qatorda, o‘ziga xos alohida xususiyatlarni ham tajassum etadi. Bu xususiyat esa davlat hokimiyati masalalariga borib taqaladi. Hokimiyat fenomeni siyosatni boshqaruv bilan bog‘lovchi bo‘g‘indir. Ana shu bog‘lanish sharofati bilan siyosiy sistemaning asosiy elementi bo‘lmish davlat qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Shu bois siyosiy madaniyat fenomenini tadqiq qilish hamisha dolzarb masala hisoblanadi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi. “Siyosiy madaniyat” tushunchasi 1950–60-yillarda AQSHlik atoqli siyosatshunoslar Gabriel Almond va Sidney Verba tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ular tomonidan, asosan, siyosiy madaniyatning tarkibiy jihatlari tahlil qilinadi [1]. R.Karr va M.Bernsteyn esa siyosiy madaniyatni siyosiy g‘oyalar va ijtimoiy amaliyot birligi sifatida, F.M.Burlaskiy va A.A.Galkin esa uni siyosiy faoliyat manbayi deb talqin qilishadi [5;104–105-b.]. Boshqa tadqiqotchilar tomonidan esa siyosiy madaniyatning shaxs va jamiyat hayotining turli sohalariga ta’sir darajasi o‘rganildi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida tizimli tahlil, analiz va sintez, mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Demokratik jamiyatda yashashga loyiq fuqaro mamlakat siyosiy hayotida faol ishtirok etishi kerak. Buning uchun u mustaqil shaxs sifatida shakllanishi va yuksak siyosiy madaniyatga ega bo‘lishi lozim. Shaxs siyosiy madaniyati esa bu uning siyosatga, davlat va uning institutlariga nisbatan munosabatini shakllantiradigan siyosiy qadriyatlari, qarashlari, e’tiqodlari, prinsiplari, an’analari va xulq-atvor me’yorlari yig‘indisidir. Shaxsning siyosiy tizimni qanday idrok etishi, unda ishtirok etishi va u bilan qanday munosabatda bo‘lishi uning siyosiy madaniyatiga bog‘liq.

Shaxs siyosiy madaniyati tarixiy tajriba, iqtisodiy vaziyat, ta’lim va boshqa omillar ta’sirida shakllanadi. Masalan, demokratik jamiyatlarda siyosiy madaniyat inson huquqlariga hurmat, so‘z erkinligi va fuqarolarning qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini o‘z ichiga oladi. Avtoritar tizimlarda siyosiy madaniyat hokimiyatga bo‘ysunish va aholining siyosiy hayotga kamroq ishtirok etishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Siyosiy madaniyat, odatda, bir nechta asosiy elementlarga bo‘linadi:

1. Siyosiy bilim va savodxonlik:

▪Siyosiy tizim, siyosiy institutlar va ularning ishlash mexanizmi, qonunlar va siyosiy mafkuralar haqida bilimga ega bo‘lish.

▪Siyosiy voqealarni tahlil qilish va baholash qobiliyati.

▪Siyosiy manbalardan ishonchli ma’lumotlarni ajrata olish.

2. Siyosiy faollik:

▪Saylovlarda ishtirok etish, siyosiy partiya va boshqa jamoat tashkilotlariga a’zo bo‘lish, siyosiy faoliyat yuritish.

▪O‘z fikrini erkin va ochiq ifoda etish, muqobil fikrlarga hurmat bilan qarash.

▪Jamiyatdagi muammolarni hal qilishda faol ishtirok etish.

3. Mas’uliyat va axloqiylik:

▪O‘z harakatlarining oqibatlarini anglash va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish.

▪Jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘yish.

▪Siyosiy faoliyatida adolat va axloqiy me’yorlarga rioya qilish.

4. Mustaqil va tanqidiy fikrlash:

▪O‘z fikriga ega bo‘lish va siyosiy masalalarda o‘ylab qaror qabul qilish.

▪Siyosiy axborotni tanqidiy baholash, manbalarning ishonchliligini tekshirish.

▪Siyosiy bayonotlar va va’dalarni tahlil qilish, ularning mantiqiy asoslarini tekshirish.

▪Siyosiy manipulatsiya va propagandaga qarshi tura olish.

5. **Qadriyatlar, e’tiqodlar va emotsional munosabat**:

▪Shaxsning siyosiy ideallar, masalan, demokratiya, ozodlik, tenglik yoki an’analarga munosabati.

▪Siyosiy tuzum yoki rahbarlarga nisbatan ijobiy yoki salbiy hissiyotlar.

Mashhur siyosatshunoslar Gabriel Almond va Sidney Verba siyosiy madaniyatni uch asosiy tipga ajratgan:

•**Patriarxal (parochials)**: Siyosiy tizimga e’tiborsiz, mahalliy urf-odatlar va an’analarga o‘ralashib qolgan, faqat mahalliy muammolar qiziqtiradigan.

•**Itoatkor (subjects)**: Siyosiy tizimga itoat qilishga moyil, kamdan kam hollarda faollik ko‘rsatadigan.

•Faol ishtirokchi (partipicants). Siyosiy madaniyatda siyosiy tizimning o‘ziga xos xususiyatlari aks etadi. Demokratik davlatlarda siyosiy faollik madaniyati ustun bo‘lsa, avtoritar tuzumlarda itoatkor yoki mahalliychilik madaniyati hukmron bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarini isloh qilish sharoitida siyosiy madaniyatni rivojlantirish istiqbollari boshqa ijtimoiy-siyosiy sistemalarning demokratik madaniyat yutuqlari bilan boyitib borishni taqozo etadi. Lekin, shu bilan birga, mashhur politolog S.Koenning o‘z siyosiy madaniyati ildizlariga tayanmagan biror davlatdagi hech bir siyosiy sistema barqaror bo‘la olmaydi, degan qarashlarini ham esdan chiqarmaslik kerak. Shu bois olg‘a qadam bosish uchun, siyosiy madaniyat taraqqiyotining asosiy hamda eng to‘g‘ri tendensiyalarini aniqlab olish kerak [3].

Jamiyatda demokratik prinsiplarning qaror topishida jamiyat a’zolarining siyosiy ongi va madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois demokratik taraqqiyot yo‘lini tanlagan mamlakatlarda har bir shaxsning siyosiy madaniyati yuksalishi kerak. Siyosiy madaniyat, avvalo, shaxsning siyosiy bilim va saviyasiga bog‘liq bo‘lib, u siyosiy tizim, siyosiy institutlarning mohiyati va ularning ishlash mexanizmini to‘la tushunishi, qonunlarning ahamiyatini anglashi, siyosiy voqealarni tahlil qila olishi lozim. Ammo nazariy bilimlarni egallash hali shaxsda siyosiy madaniyat shakllandi degani emas. O‘z siyosiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun amaliyotda nshtirok eta boshlagandagina unda siyosiy madaniyat kurtak otadi. Shaxs siyosiy madaniyati uning ongi va faoliyatida o‘z ifodasini topadigan ijtimoiy voqelikdir.

Buning uchun esa shaxsdan siyosiy faollik, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish, siyosiy partiya va boshqa jamoat tashkilotlariga a’zo bo‘lish talab etiladi. Hech bir inson yakka o‘zi harakat qilib, o‘zining manfaatlarini qondirolmaganidek, huquqlarini ham qo‘lga kiritolmaydi. Bu manfaat va huquqlar biron-bir jamoat tashkiloti vositasidagina qondiriladi. Shu sababli siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari demokratik davlatda muhim o‘rin tutadi.

Siyosiy madaniyatni o‘rganmay turib, jamiyatda sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlar mohiyatini, uniig harakatlantiruvchi kuchini anglash mushkuldir. Siyosiy madaiiyat siyosiy jarayonlarning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan imkoniyatni yaratadi. Shaxs siyosiy madaniyatining yuksalishida uning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokining ham ahamiyati beqiyosdir. Shaxs jamoat tashkilotlari orqali yoki bevosita siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etar ekan, o‘z fikrini erkin va ochiq ifoda etish mahoratiga, jur’ati va jasoratiga ega bo‘lishi kerak. Ammo, shunisi ham borki, shaxs siyosiy madaniyatining namoyon bo‘lishi uchun uning o‘zidagi sifatlar yetarli emas. Buning uchun zarur obyektiv shart-sharoitlar ham talab etiladi. Ya’ni, shaxsga siyosiy jarayonlarning faol subyektiga aylanishiga imkon berilishi, erkin fikri, siyo+siy faolligi uchun tazyiqqa uchramasligi kerak.

Mustaqillikka erishgan yurtimizda demokratik jamiyat qurish yo‘lida qator islohotlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan siyosiy islohotlar natijasida shaxs ijtimoiy-siyosiy faolliginining oshishi, uning siyosiy madaniyatining yuksalishi uchun zarur shart-sharoitlar vujudga keldi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda vujudga kelgan siyosiy erkinlikni vatan taqdiri va vatandoshlar taqdiriga befarq bo‘lmagan kishilar qalbida mamnuniyat hissini uyg‘otdi. Bugun siyosiy voqealar haqida o‘z fikrlar bemalol aytilayapti, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda siyosiy-ijtimoiy mavzularga bag‘ishlangan ko‘plab mualliflik ko‘rsatuvlari, siyosiy blogerlar, podkastlar namoyish qilinmoqda.

Bularning barchasi esa shaxs siyosiy madaniyatining yuksalib, siyosiy yetuk shaxsning shakllanishiga olib keladi. Siyosiy madaniyat siyosiy yetuk shaxs fazilatlarining integral xarakteristikasi hisoblanib, u o‘zida siyosiy ong va faoliyatning barqaror komponentlarini ifodalaydi. Siyosiy yetuk shaxs siyosiy madaniyati yuksak, siyosiy mas’uliyatli va bilimli shaxsdir. Siyosiy yetuklik bu shaxsning siyosiy tizimni tushunishi, mustaqil fikr yuritishi, siyosiy qarorlar qabul qilishda mas’uliyatli bo‘lish, adolat uchun kurashish va o‘z manfaatlarini himoya qilish qobiliyatidir. Siyosiy yetuk shaxsda tanqidiy fikrlash, siyosiy jarayonlarni tahlil qilish va ularga munosib javob qaytarish ko‘nikmalari shakllangan bo‘ladi, o‘z fuqaroviy pozitsiyasida qat’iy turadi.

Shaxs siyosiy yetukligi uning siyosiy jarayonlarga faol munosabatida o‘z ifodasini topadi. Siyosiy faol shaxs hech narsaga befarq bo‘lmaydi. Bunday shaxs nafaqat mamlakat, balki butun dunyoda sodir bo‘layotgan siyosiy voqea-hodisalarni sinchkovlik bilan kuzatadi. Zulm va zo‘ravonlikdan, ijtimoiy adolatsizlikdan jafo chekayotgan insonlar taqdiridan qayg‘uradi. Yuzaga kelgan muammolarning asl sabablarini tahlil qiladi va oqibatlarini bartaraf etish yo‘llarini izlaydi. Yangicha siyosiy tafakkur shaxsga mamlakat siyosiy hayotiga faol ishtirok etishi uchun ichki stimul beradi, milliy manfaatlarni to‘laroq tushunib yetishiga, milliy ehtiyojlarni aniqroq tasavvur qilishiga ko‘maklashadi.

Aytish mumkinki, siyosiy yetuklik jamiyatning barqaror demokratik taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Siyosiy yetuk shaxslar o‘z siyosiy faolligi orqali adolatli jamiyat qurishga o‘z hissalarini qo‘-

shadilar. Siyosiy yetuklikka erishish uzluksiz jarayon bo‘lib, o‘qish, izlanish, axborotlardan boxabar bo‘lish va siyosiy hayotda faol ishtirok etish orqali rivojlanib boradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, siyosiy madaniyati yuksak bo‘lgan siyosiy yetuk shaxs – shaxsning siyosiy ongi va faoliyatining qanchalik darajada shakllanganligi xarakterlovchi tushunchadir. Uning ushbu xislatlari bilimi, mas’uliyati, faolligi, prinsiplari, mustaqil tafakkur salohiyati orqali namoyon bo‘ladi. Undagi ushbu sifatlar esa obyektiv shart sharoitlar, subyektiv omillar ta’siri ostida shakllanib boradi. Demokratik jamiyat barpo etilish jarayonida mazkur obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar uyg‘unlashar ekan, shaxsning siyosiy madaniyati ham yuksala boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Almond C. The Civil Culture. Politikal Attitudes and Demograsy in Five Nations. Boston, 1969.

(2). Алмонд Г., Верба С. Гражданская культура: политические установки и демократия в пяти странах. – Москва, “Мысль ”, 2014, 500 с.

(3). Актуальные проблемы современной зарубежной политической науки. Вып. 1. М., 1990.

(4). Блинов Н., Ожегов Ю., Шереги Р. Политическая культура и молодёжь. М., “Знание”, 1982.

(5). Фарушкин М.Х. Политическая культура общества. Социально-политические науки. 1991, № 4, с. 104–105.

Sattorova Shalola Bobir qizi (Buxoro davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi f.f.f.d. (PhD)

MIRZO BEDIL IJTIMOIY-FALSAFIY G‘OYALARINING KOMIL INSONNI TARBIYALASHDAGI MA’NAVIY-AXLOQIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada mutafakkir Mirzo Bedil hayoti, uning falsafasiy ijodiga bog‘liq bo‘lgan va adolatli jamiyat, insonparvarlik g‘oyalari masalalariga, shuningdek, barcha asarlarida bo‘lgani kabi, insoniy fazilatlar: insonga hurmat, ilm va uning ulug‘vorligi, mehr-oqibat, rostgo‘ylik, mehnatse-varlik, kamtarlik, o‘z-o‘zini tarbiyalash, uzoqni ko‘ra bilish, sadoqat, qanoat, sabr-toqat, fikr-mulohaza, diqqat-e’tibor tasvirlanganligi uning g‘azallarini tahlil qilib berish orqali yoritilgan va uning barkamol avlod tarbiyasidagi o‘rni tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Bedil” atamasi, “Bedillik” ishqning mukammalligi, insonparvarlik, o‘zlikdan kechish, haqqa va xalqqa muhabbat, tafakkur egasi.*

Сатторова Шалола Бобир кизи (преподаватель кафедры обществознания Бухарского государственного педагогического института, кандидат педагогических наук (Phd)

ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ИДЕЙ МИРЗО БЕДИЛЯ В ВОСПИТАНИИ ЦЕЛОСТНОЙ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В статье анализируется жизнь мыслителя Мирзо Бедиля, его философское творчество, вопросы справедливого общества, гуманистические идеи, а также изображение человеческих качеств, как и во всех его произведениях: уважение к человеку, величие знаний и мудрости, доброта, честность, трудолюбие, смирение, самодисциплина, дальновидность, верность, довольство, терпение, размышление и внимание, а также анализируется его роль в гармоничном воспитании поколения.*

Ключевые слова: *термин «Бедил», «Бедиллик» означает совершенство любви, гуманности, самоотречения, любви к истине и людям, мыслителя.*

Sattorova Shalola Bobir qizi (Teacher of the Department of Social Sciences of the Bukhara State Pedagogical Institute, PhD)

THE SPIRITUAL AND MORAL SIGNIFICANCE OF MIRZO BEDIL'S SOCIO-PHILOSOPHICAL IDEAS IN RAISING A COMPLETE PERSON

Annotation. *The article analyzes the life of the thinker Mirzo Bedil, his philosophical work, and the issues of a just society, humanistic ideas, as well as the depiction of human qualities, as in all his works: respect for man, the greatness of knowledge and wisdom, kindness, honesty, hard work, humility, self-discipline, foresight, loyalty, contentment, patience, reflection, and attention, and analyzes his role in the harmonious upbringing of the generation.*

Keywords: *The term “Bedil”, “Bedillik” means the perfection of love, humanity, self-denial, love for truth and people, and a thinker.*

Kirish. XVII–XVIII asrlarda Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy to‘qnashuvlar Mirzo Abdulqodir Bedilning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyalariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu davrda Hindistonda